
Obodonlashtirish boshqarmasi xodimlariga zamonaviy mehnat qurollari topshirildi

Farg'ona shahridagi barcha markaziy ko'chalar, jamoat joylari, hiyobonlar hamda aholi dam olish maskanlarining ozoda bo'lishi, ko'kalamzorlashtirish ishlarining bajarilishida obodonlashtirish boshqarmasi xodimlarining o'rni beqiyos. Erta tongdan ishga otlangan har bir xodim shahrimizning kundan kun chiroy ochib borishida sidqidildan mehnat qilishmoqda.

Albatta, bu jarayonlarda ularning yukini yengil qiluvchi mehnat qurollarining mavjudligi muhim hisoblanadi. Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov bir guruh boshqarma xodimlari bilan uchrashdi. Boshqarma xodimlarining mashaqqatli va samarali mehnatlari e'tirof etildi. Ular bilan ayni kunlarda bajarilishi muhim bo'lgan vazifalar bo'yicha suhbatlashdi.

Ishchi-xodimlarning fikrlari eshitildi, takliflari o'rganildi. Tadbir davomida ishchilarga 50 ta zamonaviy o't o'rish moslamalari topshirildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-14 19:19:23